



UDK:80/81.811.111(075.8)

Gulruh BAHODIROVA,
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti v.b., PhD
E-mail: gulrubbahodirova7777@gmail.com

O'zMU professori M.Kurbanova taqrizi asosida

TERMINLAR TADQIQIGA AN'ANAVIY VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR

Annotation

Maqolada termin va tushuncha o'rtasidagi munosabat, termin tizimining mantiqiy va konseptual asoslari, shuningdek, terminotizimga qo'yiladigan asosiy talablarga (tizimlilik, aniqlik, tushunarlilik) oid fikrlar keltirilgan. Zamonaviy terminologiya mohiyatini uch yo'nalishda – nazariya, amaliy faoliyat va maxsus fan sohasining lug'at tarkibi sifatida izohlanadi. Yakunda, o'zbek tilshunosligida termin tadqiqining dolzarb masalalari – terminologizatsiya, determinologizatsiya, reterminologizatsiya, shuningdek, predtermin, kvazitermin, terminoid, gibrid termin kabi birliklarning o'rganilishi bilan bog'liq muammolarni yoritadi. **Kalit so'zlar:** Terminologiya, an'anaviy yondashuv, zamonaviy yondashuv, Vena maktabi, Evgen Vyuster, M.T. Kabre Kastelvi, terminotizim, terminologizatsiya, reterminologizatsiya.

TRADITIONAL AND MODERN APPROACHES TO THE STUDY OF TERMS

Annotation

The article examines the relationship between a term and a concept, the logical and conceptual foundations of the terminological system, as well as the main requirements for a terminology system – systematicity, precision, and clarity. The essence of modern terminology is interpreted in three dimensions: as a theory, as a practical activity, and as the lexical composition of a specialized branch of science. In conclusion, the study highlights the current issues in Uzbek linguistics related to terminology research – the processes of terminologization, determinologization, and reterminologization, as well as challenges associated with the study of such units as preterm, quasi-term, terminoid, and hybrid term.

Key words: Terminology, traditional approach, modern approach, Vienna School, Eugen Wüster, M.T. Cabré Castellví, terminological system, terminologization, reterminologization.

ТРАДИЦИОННЫЕ И СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ ТЕРМИНОВ

Аннотация

В статье рассматриваются взаимоотношения между термином и понятием, логические и концептуальные основы терминологической системы, а также основные требования, предъявляемые к терминологической системе – системность, точность и понятность. Сущность современной терминологии объясняется в трёх направлениях: как теория, как практическая деятельность и как лексический состав специализированной отрасли науки. В заключение освещаются актуальные вопросы исследования терминов в узбекском языкознании – процессы терминологизации, детерминологизации, ретерминологизации, а также проблемы, связанные с изучением таких единиц, как предтермин, квазiterмин, терминойд и гибридный термин.

Ключевые слова: Терминология, традиционный подход, современный подход, Венская школа, Евгений Вюстер, М.Т. Кабре Кастельви, терминосистема, терминологизация, ретерминологизация.

Kirish. Ma'lumki, leksikografiya kabi terminologiya tarixi ham uzoq davrlarga borib taqalsa-da, uning o'rganilishi, fanlar sistemasida ko'rinishi u qadar uzoq tarixga ega emas. Jahon tilshunosligida terminologik tizimlar, xususan, sohaviy leksikani kompleks o'rganish, umumxalq tilining tarkibiy qismi sifatida ahamiyatini ochib berish borasida hozirgi kunga qadar son-sanoqsiz tadqiqotlar bajarildi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. K.Lauren va H.Pichtlar 1993-yilda Venada nashr etilgan "Terminologiyadan tanlangan matnlar" asarida klassik terminologiyaga aloqador uchta asosiy terminologiya maktabini ajratadilar: Vena terminologiya maktabi; Praga terminologiya maktabi; Moskva terminologiya maktabi. Ular bunga qo'shimcha ravishda Kanada, Shimoliy mamlakatlar va Manchester Fan va texnologiya universiteti (University of Manchester Institute of Science and Technology, UMIST)da joylashgan ayrim tadqiqot markazlarini ham sanab o'tadilar [4].

Keyinchalik terminologiyani yangicha konsepsiyalar asosida o'rganuvchi bir qator zamonaviy milliy maktablar

yuzaga keldi va bu terminologiyada ikki oqimning ajratilishiga sabab bo'ldi:

- a) an'anaviy (klassik) terminologiya;
- b) zamonaviy terminologiya.

Terminologiyaning boshlanishi, umuman, klassik terminologiya nazariyasiga asos solinishi Avstraliyalik olim, Vena terminologiya maktabining yetakchi vakili Evgen Vyuster (1898-1977) hamda rus olimi, Moskva terminologiya maktabi vakili Dmitriy Semyonovich Lotte (1898-1950)larning nomi bilan bog'liq. Ularning texnik terminologiyani standartlashtirish va unifikatsiya qilish muammolariga doir ilmiy izlanishlari 1947-yilda xalqaro aloqa va hamkorlikni yaxshilash hamda xalqaro savdodagi to'siqlarni kamaytirish uchun universal standartlarni ishlab chiqish maqsadida tashkil etilgan Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti (International Organization for Standardization, ISO) tomonidan qo'llab-quvvatlanadi [6].

Jahon klassik – an'anaviy terminologiyasining shakllanishi XIX asr o'rtalariga to'g'ri keladi. A.Reyning

fikricha, “terminologiya” soʻzi fransuz tilida dastlab “hech kim tushunmaydigan jargon soʻz” sifatida uzoq vaqt salbiy maʼnoda qoʻllangan. 1830-1840-yillar oraligʻida yozilgan manbalarda hozirgi xususiyati – aniq maʼnoga ega boʻlgan sohaga oid nomlar va ularni tartibga solish bilan shugʻullanuvchi fan tarmogʻiga ishora uchraydi. Xususan, ingliz tilida ham mazkur termin ancha oldin qoʻllangan boʻlishiga qaramay yaqin tarixgacha alohida fan sohasi sifatida eʼtiborni tortmagan. XX asrga kelib ilm-fan, texnika taraqqiyoti sababli xalqaro standartlashtirish ehtiyojining paydo boʻlishi tom maʼnodagi terminologiya fani rivojiga zamin hozirlagan [8].

Tahlil va natijalar. Zamonaviy terminologiyani taniqli vakillaridan biri ispan terminologi, professor Mariya Tereza Kabre Kastelvi 1993-yilda Barselonada nashr etilgan “Terminologiya: nazariya, metodologiya, tatbiq” nomli kitobida terminologiyani mustaqil, boshqa sohalaridan uzilgan avtonom fan ekaniga doir qarashlarga eʼtiroz bildiradi. “Har qanday holatda ham, – deydi u, – terminologiyani avtonom fan deb boʻlmaydi. Terminologiyaga umumfan nuqtayi nazardan yondashish zarur, chunki u boshqa fanlar bilan bogʻliq boʻlib, u mazkur fanlarga oid maʼlum tushunchalarni oʻz ichiga oladi”[1]. Keyinchalik 1998-yilda chop etilgan “Terminologiya nazariyasi uchun materiallar: muqobil paradigma sari” deb nomlangan maqolasida yuqoridagi fikrini aniqlashtirib, “transdisiplinar nuqtayi nazardan, ixtisoslashgan bilim va kontekstni oʻrganish uchun terminologiyadan foydalanmaydigan biron bir fan yoʻq”[2] deydi.

Shuningdek, soʻnggi yillarda terminologiyaga bagʻishlangan turli xalqaro anjuman va forumlarda aksariyat munozaralar klassik terminologiyani hozirgacha yetakchilik qilib kelayotgan oʻzgarmas nazariy tamoyillari hamda zamonaviy qarashlar oʻrtasidagi nomuvofiqliklar atrofida kechayotgani, terminlarni oʻrganishda anʼanaviy nazariyalar bilan birga yangi – zamonaviy paradigmalar ham zarurat borligini qatʼiy kun tartibiga qoʻyadi. Shundan keyin tanqidga olingan muammolar va ularning yechimiga doir qator maqolalari eʼlon qilinadi. Kabredan soʻng terminologiya nazariyasini isloh qilish mavzusi koʻplab terminologlarning diqqatini tortadi. Aksariyat bahslar Vyusterning terminologik nazariyasi asosida terminning tushunchaga (yaʼni, konseptual birlikka) ishora qiluvchi belgiga (har qanday tilda) ega boʻlgan ikki tomonlama birlik degan qarash yotishi, shunga koʻra Xalqaro Standartlashtirish Tashkiloti ham terminologiyani “ixtisoslashgan tillarda qoʻllaniladigan tushunchalar va terminlarni ilmiy oʻrganish” deb taʼriflashi, umuman, tushuncha va termin munosabati haqidagi fikrlar atrofida edi.

Zamonaviy terminologiyani taniqli vakili Silviya Monteroning taʼkidlashicha, yuqorida tilga olingan anʼanaviy terminologiya maktablarning barchasi uchun konsepsiya terminologik tahlilning boshlangʻich nuqtasi hisoblanib, onomasiologik strategiyaga amal qiladi. “Vyuster hatto konsepsiya tildan tashqarida ham mavjud boʻlishi mumkinligini taʼkidlaydi va uni taʼriflashning eng yaxshi usuli uning konseptual tizimda oʻrnini aniqlashdir, bu mantiqiy va

ontologik munosabatlarni rasmiylashtirishdan boshqa narsa emas. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, terminologiya yagona, avvaldan mavjud boʻlgan konseptual tizimni ifodalashdan boshqa narsa emas. Atamalar bir xil, tarixiy boʻlmagan, vaqtga toʻgʻri kelmaydigan, ijtimoiy va mafkuraviy neytral tushunchani bildiradi; yaʼni subyektlar yoki voqelik bir xil va universal tarzda konsepsiyalanadi”[6].

D.S.Lottening fikricha, terminosistemadan tizimlilik, aniqlik, tushunarlilik talab etiladi [5]. Shu nuqtayi nazardan S.V.Grincev terminotizim uchun zaruriy boʻlgan uchta muhim shart mavjud ekanini taʼkidlaydi:

- terminotizim tushunchalar tasnifiga asoslanishi kerak;
- tasnifga asosan terminotizimda terminga oid xususiyatlar va tushunchalarni ajratish zarurati tugʻilishi kerak;
- terminosistema birliklari shu tizimda boshqa terminlardan oʻziga xos belgilari bilan ajratib turishi kerak [3].

Xullas, bugungi kunga kelib sohaga oid manbalarda termin va terminologiyaga berilgan son-sanoqsiz taʼriflarning aksariyatini quyidagi mazmun umumlashtiradi: termin – ilm-fan, texnika yoki inson faoliyatining muayyan sohasiga xos maxsus tushunchalarni bildiruvchi, shu soha vakillari tomonidan qabul qilingan soʻz yoki soʻz birikmasi. Terminologiya esa tibbiyot, axborot texnologiyalari, falsafa, grammatika, til, adabiyot, matematika, musiqa – umuman, ilm-fanning barcha sohalarini, shuningdek, umumxalq tiliga tegishli boʻlgan maxsus soʻz va birikmalarni toʻplash, tahlil qilish, tarjima va talqin qilish muammolarini nazariy oʻrganish bilan shugʻullanadigan fan hisoblanadi.

Zamonaviy terminologiyani mohiyati quyidagi uch maʼno bilan chambarchas bogʻliq:

1. Tushunchalar va atamalar oʻrtasidagi munosabatlarni tavsiflovchi alohida nazariya.
2. Terminlarni toʻplash, tavsiflash va taqdim etish faoliyati.
3. Maxsus fan sohasining lugʻat tarkibi [7].

Xulosa va takliflar. Tilshunoslik tarixining ilk bosqichlaridayoq termin, uning taʼrifi, tavsifi mutaxassislarning diqqat-markazida boʻlgan. Biroq hozirga qadar ham jahon tilshunosligida terminlarning genetik qatlamlari, tarixiy-etimologik asosi, leksik-semantik, grammatik, derivatsion xususiyatlari, nomlanish mezonini, shuningdek, termin, atama, nomen, professionalizm tushunchalari atrofida bahs-munozaralar davom etmoqda. Jumladan, oʻzbek tilshunosligida ham terminologiya boʻyicha son-sanoqsiz ishlar bajarilayotgani, termin tadqiqiga anʼanaviy usullar bilan birga zamonaviy lingvistik paradigmalar koʻzgusida yangicha izlanishlar olib borilayotganiga qaramay, muayyan terminotizimda yangi bir terminning paydo boʻlishi, yangi maʼno kasb etishi yohud isteʼmoldan chiqishi bilan bogʻliq terminologizatsiya, determinologizatsiya, reterminologizatsiya hodisalari, derivatsion jarayonning turli bosqichlariga aloqador predtermin, kvazitermin, terminoid, prototerm, nomzod termin, termin token, gibrid termin, professional jargon va argo masalalari hamon dolzarbligicha qolmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Cabré Castellví, M.T. 1993: La Terminología: Teoría, metodología, aplicaciones. Barcelona: Ed. Antártida. – B. 36, 71.
2. Cabré Castellví, 1998: Elementos para una teoría de la terminología: hacia un paradigma alternativo. El Lenguaz. Revista académica del Colegio de Traductores Públicos de la ciudad de Buenos Aires 1/1: 59-78. – B.59, 70.
3. Гринев С. В. Введение в терминоведение / С. В. Гринев. – М.: Московский Лицей, 1993. – С.15
4. Laurén, C., Picht, H. 1993. Ausgewählte Texte zur Terminologie. Wien: Termnet. TermNet, Internat. Network for Terminology, 1993.
5. Лотте Д. С. Образование и правописание трехэлементных научно-технических терминов. – Москва: Наука, 1969. – С. 119.
6. Montero Martínez, S. (2005). Estructuración conceptual y formalización terminográfica de frases en el subdominio de la oncología (Tesis de Doctorado). Alicante: Biblioteca Virtual Miguel de Cervantes, 2005. <http://elies.rediris.es/elies19/>

-
7. Nkwenti-Azeh, B. 1998: Information Mediation: The Interface between Terminology and Translation. En Kent, A. ed: 1998: Encyclopedia of Library and Information Science. Vol. 62 (Supplement 25). Nueva York/Basel/Hong Kong: Marcel Dekker, Inc.
 8. Rey, A. 1995: Essays on Terminology. Amsterdam / Filadelfia: John Benjamins Publishing Company.
 9. Bahodirovna, B. G. (2023). KASHTACHILIK LEKSIKASINING LEKSIK-SEMANTIK TASNIFI. Science and innovation, 2(Special Issue 5), 222-226.
 10. Bahodirova Gulruh Bahodirovna. (2024). Interpretation of Embroidery Terms in Dictionaries. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education (2994-9521), 2(6), 981-983. <https://doi.org/10.5281>